

## Adabiy merosimiz ustunlari

2021-yil 10-fevral kuni O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, Toshkent shahar 274-sonli umumta’lim o‘rta maktabi va Yoshlar media akademiyasi bilan hamkorlikda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud sanalariga bag‘ishlangan «Adabiy merosimiz ustunlari» mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.



Tadbir Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori, t.f.n. X.T.Fayziyev tomonidan ochib berildi.

Tadbirda “Temuriylar davri ilm-fan va madaniyati”, “Alisher Navoiy va Kamoliddin Behzod - ma’rifat homiylari”, “Alisher Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asari xususida”, “Alisher Navoiy bunyodkorligi haqida yozma ma’lumotlar”, “Vatanimizning boy tarixi - milliy ruh tayanchi” mavzularida ma’ruzalar tinglandi. Shuningdek, Toshkent shahar 274-sonli umumta’lim o‘rta maktab o‘quvchilari tomonidan sahna ko‘rinishlari namoyish etildi.





Tadbir ishtirokchilariga Muzei ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari taqdim etildi.

